

## BOZOR IQTISODIYOTINING INFRATUZILMASI VA ULARNI FAOLIYATINING SHAKLLANISHI

**A.A. Xaitov**

*“University of economics and pedagogy” NOTM  
Iqtisodiyot kafedrası professori, i.f.d*

**Al. A. Xaitov**

*“University of economics and pedagogy” NOTM  
Iqtisodiyot kafedrası asisstanti*

**Annotatsiya.** *Bozor iqtisodiyotida to‘rt bozor tovarlar va xizmatlar bozori, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori shakllanishi bilan bozor iqtisodiyoti vujudga keladi, maqoladi abstrakt tafakkur bilan to‘rtala bozor tariflangan, bu bozorni O‘zbekiston iqtisodiyotida shakllanish jarayonlari va unga muvofiq infratuzilmani vujudga kelishi xamda ularni faoliyati o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqarish infrastrukturası ob‘ektlari, tovarlar va xizmatlar bozori, ish kuchi bozori, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar bozori, universal banklar, fond birjalari, valyuta birjalari, brokerlik kompaniyalar, xolding kompaniyalar, aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel, xomg‘ashyo birjasi.*

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi xar bir mamlakatdagi iqtisodiyotning taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi. Aynan mamlakat iqtisodiyotining moddiy ne‘matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlari va korxonalarining ixtisosligi, kooperatsiya miqyoslari ularga monand ishlab chiqarish infrastruktura ob‘ektlarini taqozo etadi. Infrastruktura ob‘ektlari asosiy moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish tarmoqlari va yo‘nalishiga monand yuzaga keladi [1-3].

Ma‘lumki, bozor iqtisodiyotida to‘rt bozorni vujudga kelishi, amal qilishi bilan xarakterlanadi. Bular:

- Tovarlar va xizmatlar bozori.
- Ish kuchi bozori.
- Kapital bozori.
- Qimmatli qog‘ozlar bozori.

Bu bozorlarning faoliyati, unsurlari bir-birlaridan farq qiladi.

Tovarlar va xizmatlar bozoriga ulgurji va chakana savdo ob‘ektlari, do‘konlar, univermag, supermarket, minimarket xamda gipermarket shaxobchalari xizmat ko‘rsatadilar.

Ularning asosiy vazifasi bu – tovarlar va xizmatlar oldi-sotdi jarayoni amalga oshiruvchi auksionlar, yarmarkalar, tovar birjalari faoliyatlaridir. Shuni ta‘kidlash

lozimki, tashqi savdo o'ziga mos infrastrukturani zarur qilib, milliy mamlakat tadbirkorlari bilan xorijiy sub'ektlarning tovarlar va xizmatlarning oldi-sotdi jarayonini yurituvchi kommersiya savdo markazlari, savdo uylari, savdo –sanoat palatalari, ko'rgazma va yarmarka pavilonlari, tashqi savdo firma va korxonalarni taqozo etadi [4,5].

Ish kuchi bozori – mexnatga layokatli insonlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatuvchi sub'ektlarni yollovchi sub'ektlar bandlik bilan shug'ullanuvchi bandlik markazlari, mexnat birjalari, mexnat byurolarining faoliyatini taqozo etadi. Ish kuchi bozorining infrastruktura ob'ektlarining O'zbekistondagi "Mardikor bozori" mamlakatimizning turli regionlarida turlicha bo'lib, bir-birlaridan ish kuchini yollash munosabatlari farqlanadi. Ish kuchini yollashda uning kasbi, mexnati, e'tiborga olinib, vaqtbay va ishbay shaklda xaq to'lash kelishiladi. O'zbekiston ish kuchi bozorida yoki mexnat resurslarini katta salmog'i bilan xarakterlanadi. Mamlakatdagi axolining 30 yoshgacha bo'lgan qismi 50 % dan iborat bo'lib, ulkan potensialga ega. Asosiy muammo ularni yetuk bilimli, malakali, bugungi bozro talablaridan kelib chiqib, ularni o'qitish, malakali mutaxasis bo'lishlarini ta'minlashdir. Tajribadan ko'rinmoqdaki, mavjud mexnat resurslari bugungi bozor infrastrukturasini va bozor sub'ektlarini talablariga monand emas. Muammo, mavjud mexnat resurslarini bozor talabiga mos kasbkor, xunar, bilim, xamda malaka bilan shakllantirishdir. Xozirda, O'zbekistonda sun'iy intellekt, informatsion texnologiyalar, iqtisodiyotga keng qo'llanilmoqda. Demak, ularga monand ish kuchiga talab ortib boradi [6].

Kapital bozori - bu asosan pulning xarakati bilan bog'liq bo'lib, moliya bozorida banklar tizimi faoliyatini namoyon etadi. Bank tizimining ixtisoslashgan va universal banklari, fond birjalari, valyuta birjalari, omonat va broker kompaniyalari, xolding kompaniyalar mazkur bozorning asosiy infrastruktura sub'ektlari tashkil etadi. O'zbekiston kapital bozorida markaziy bankning foiz normasi muxim bo'lib, uning asosida barcha tijorat, ixtisoslashgan banklar faoliyat yuritadilar. Xozirda markaziy bank foiz ko'rsatqichi 13.5% . Pulga talab va taklif banklar, moliya va kredit muassasalari, turli moliya kredit munosabatlarini yurituvchi auditor kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Kapital bozorining asosiy bazaviy ko'rsatqichi foiz stavkasidir. Bu foiz tuzilishi o'z ichiga xisob stavkasi, kreditlar uchun foiz, xazina veksellari uchun stavka xamda banklararo foizdantashkil topadi. Xozirda O'zbekistondagi tijorat banklari foiz stavkalarini 26-28% miqyosida faoliyat yuritmoqdalar. Albatta bu masala milliy mamlakat va xalqaro munosabatlardagi o'zaro munosabatlarga bog'liqdir. O'zbekiston dunyoning yirik banklari bilan keng ko'llamda iqtisodiy munosabatlar yuritib, ulardan mamlakatga yirik xajmda investitsiyalar kiritmoqda, ayniqsa so'ngi vaqtlarda ularni miqdori yildan-yilga o'sib borib 2025 yilda 35 mlrd. AKSh dollarida investitsiya jalb etildi [7,8].

Qimmatli qogozlar bozori aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksell kabi unsurlar tashkil topib, fond birjalarida oldi-sotdi jarayonida namoyon bo'ladi. Bu bozor fiktiv

kapital tushunchasida o'rganilib fond birjalari, banklar xizmatlarini taqozo qiladi. Bu bozor O'zbekistonda, bizning fikrimizcha, respublika xom-ashyo birjasi va banklar kabi infrastruktura shaxobchalarida savdo xarakati amalga oshiriladi. Qimmatli qogozlar bozori moliyaviy aktivlar xarakati bo'lib, ma'lum miqdorda daromad keltiruvchi muayyan mulk egaligini ko'rsatuvchi xujjatlardan iborat. Bu bozor muomalaga vaqtincha bo'sh, ishlatilmay turgan moliyaviy mablag'larni iqtisodiyotni investitsiya qilish maqsadida samarali tarzda xalk xo'jaligi tarmoqlarini moliyalashtiradi. Natijada, birinchidan investorlarni vaqtincha bo'sh turgan mablag'lari ularga daromad keltirsa, ikkinchidan mamlakat iqtisodiyoti zarur bo'lgan pul resurslari bilan ta'minlanadi.

Qimmatli qogozlar bozori birinchi va ikkinchi bozorlardan tashkil topadi. Birinchi, bozorda emitent, ya'ni qimmatli qog'ozni chiqaruvchi yangi, endi bozorga chiqarilgan qimmatli qog'ozni sotadi. Bunda ularga banklar, birjalar va boshqa infratuzilmalar xizmat ko'rsatadilar. Talab va taklif asosida qimmatli qogozlarni ikkinchi bozorda qimmatli qogozlar baxosi belgilanadi. Qimmatli qogoz kursi kutilayotgan daromadga, emitentning ishonchliligiga, taqsimlanadigan foydani ulushi xamda uni nomoddiy aktivlariga bog'liq bo'ladi.

Xulosa. Bozor iqtisodiyotining infratuzilmasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning shakllanishi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivoji, ishlab chiqarish munosabatlari, tarmoqlarning ixtisoslashuvi va kooperatsiya darajasiga bevosita bog'liqdir. Bozor infratuzilmasi tovarlar va xizmatlar bozori, ish kuchi bozori, kapital bozori hamda qimmatli qog'ozlar bozori orqali namoyon bo'ladi va har bir bozor o'ziga xos institutlar hamda mexanizmlar asosida faoliyat yuritadi.

Tovarlar va xizmatlar bozori savdo tarmoqlari, birjalar va tashqi savdo institutlari orqali ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Ish kuchi bozori esa mehnat resurslarini samarali taqsimlash, bandlikni ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirish vazifasini bajaradi. Kapital bozori moliya-kredit muassasalari orqali pul resurslarining harakatini tartibga solib, investitsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Qimmatli qog'ozlar bozori esa vaqtincha bo'sh mablag'larni iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

O'zbekiston sharoitida bozor infratuzilmasining rivojlanishi iqtisodiy islohotlar, moliyaviy tizimni liberallashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va investitsion muhitni yaxshilash bilan chambarchas bog'liq. Kelgusida infratuzilmani yanada takomillashtirish, mehnat resurslarini zamonaviy kasb va malakalar bilan ta'minlash, moliyaviy bozorlarning shaffofligini oshirish iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari.
5. Toshkent Respublika fond birjasi rasmiy materiallari.
6. O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasi ma'lumotlari.
7. Iqtisodiyot nazariyasi darsliklari (oliy ta'lim muassasalari uchun).
8. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot bo'yicha ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar.